

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Iqtisod fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
O‘zbek adabiy merosini turizm sohasida integratsiya qilish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: Loyiha natijalari kelajakda universitetlarda, xususan, turizm fakultetlarida yangi fanlar — «Adabiy turizm», «Madaniy turizm», «Raqamli texnologiyalar va madaniyat» kabi o‘quv yo‘nalishlari uchun nazariy va amaliy baza bo‘lib xizmat qiladi. Bu fanlar talabalarga milliy madaniyat va turizmni chuqur o‘rganish, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish va amaliyotda tatbiq etish imkoniyatlarini beradi. Raqamli arxivlar, adabiy muzeylar uchun AR/VR (virtual reallik) texnologiyalari joriy etiladi. Texnologik yondashuvlar orqali milliy adabiy merosni keng jamoatchilikka yetkazish samaradorligi oshadi. Loyiha doirasida yaratilgan barcha mahsulotlar – mobil ilovalar, veb-platformalar, turizm marshrutlari, AR-kontent va tadqiqot ishlari mualliflik huquqi asosida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Zarur hollarda patentlash va tovar belgisini ro‘yxatga olish ishlari olib boriladi. Huquqiy himoya strategiyasi ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.